



EFKRAZIS TARJIMASI: BADIY TASVIRLARNI BIR TILDAN IKKINCHI TILGA O'TKAZISH (Nozim Hikmat she'ri misolida)

Sug'diyona Ergasheva,

Qo'qon universiteti, 2-bosqich tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 49

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1399>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Ekfrazis, tarjima, badiiy tasvir, pragmatik kontekst, vizual san'at, verbal san'at, foreignization, domestication.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ekfrazis hodisasining tarjima jarayonidagi estetik va semantik funksiyasi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor "ekfrazis" – adabiy matnda boshqa san'at asarini so'z orqali tasvirlash san'atining tarjimadagi ahamiyatiga qaratilgan. Murray Kriegerning "ekfrazis – bu so'z san'atining tasviriy san'atga yaqinlashuvi" degan nazariy qarashlari asosida badiiy matnda vizual tasvirning lingvistik shakllanish jarayoni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ekfrazis tarjimasi – muallif yaratgan vizual tasvirning madaniy va semantik qatamlarini yangi til tizimida saqlab qolish uchun zarur estetik vosita sifatida baholanadi. Tadqiqotning amaliy qismi sifatida Nozim Hikmatning "Veranin uykudan uyanishi" she'ri va uning Rofiq Saydullayev tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasi batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tarjimada ekfrazisning yo'qolishi asarning badiiy ruhiga bevosita ta'sir ko'rsatishi yoritiladi.

Kirish. "Tarjima" degan so'z forsiy "tar zabon", ya'ni "xush kalom" lafzidan olingan, deyilar. "Tarzabon" keyinchalik arab tiliga tarjimon shaklida o'tib, undan "tarjima", "mutarjim" kabi yasalmalar paydo bo'lgan. Lekin ma'noning asli o'zgargan emas – fasohatli, shirin zabon kishilar hamisha tarjima bilan shug'ullanib, o'zganing fikrini to'liq va xolis, go'zal va bo'lig' shaklda boshqa odamlarga yetkazishgan¹. Tarjima nima? deb so'ralganda juda ko'pchilik "so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish" deya javob beradi. Tarjima nafaqat ikki millat, ikki madaniyat o'rnatish oltin ko'priki, shu bilan birga vaqt sayohati hamdir. Har bir so'z o'z zamonida, o'z madaniy muhitida tug'ilgan. Tarjimon bir vaqtda bir nechta zamonni yashaydigan inson. U avval muallif yashagan davrni his qilishi, keyin o'z zamonning his-tuyg'ularini tushunishi, va nihoyat, kelajakdagi o'quvchilar uchun vaqtsiz, abadiy ma'no yaratishi kerak. Shunday tarjimalar borki, o'z asl nusxasidan ham uzoqroq yashaydi. O'zining yangi tili, yangi muhiti, yangi kitobxonlari bilan birga asarga abadiylik inom etadi. Tarjima ilmini o'zbek so'zshunosligining muhim tarmog'iga aylantirgan ustoz G'aybullas Salomov: "Badiiy asarlar tarjimasining xususiyati shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirishga, did paydo qilishga va nafis narsa to'g'risida haqiqiy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi" deb yozgan edi². Shu boisdan tarjimon mahorati asarning ruhini, uslubini va madaniyatini boshqa tilga to'g'ri yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. She'r tarjimasi boshqa matnlar tarjimasidan tubdan farq qiladi. Chunki she'riy asar tarjimoni faqatgina so'zlarni bir tildan ikkinchisiga o'tkazish bilan cheklanib qolmaydi. U asarning asl ruhini, hissiy ta'sirini, shuningdek, qofiya, ritm va uslub kabi badiiy xususiyatlarini ham saqlab qolishi kerak. Eng murakkab vazifa – so'zga bog'lanib qolmaslik. Tarjimon asarning ma'nosi va go'zalligini to'laqonli yetkazish uchun, asl matndan chetga chiqishga majbur bo'ladi. Bu tarjimonning nafaqat til bilimini, balki ijodiy qobiliyatini va she'riy didini ham talab qiladi. Shuning uchun she'riyat tarjimasi oddiy mahorat emas, balki chinakam san'at namunasi deb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida badiiy matn tahliliga oid nazariy qarashlarga, tarjima matnlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy yo'nalishlariga tayandik. Tadqiqot davomida qo'llanilgan asosiy metod bu qiyosiy-tahliliy usul bo'lib, Nozim Hikmatning "Veranin uykudan uyanishi" she'ri va uning o'zbekcha tarjimasini leksik, semantik va stilistik darajada qiyoslab tahlil qildik. Tahlil jarayonida semantik tahlil, poetik-stilistik tahlil, komponent tahlil hamda ekfrastik yondashuvdan foydalandik. Shuningdek, tarjimoni o'quvchiga ta'sirini aniqlash maqsadida pragmatik tahlil metodidan ham foydalandik. Ushbu metodlar orqali asliyadagi vizual tasvirlarning tarjimada saqlanish darajasi va estetik ekvivalentligini baholadik.

Ekfrazis (ekphrasis) – bu adabiy matnda biror san'at asarini (rasm, haykal, peyzaj, me'moriy obida, naqsh va hakazo) batafsil, badiiy

tasvirlash hodisasi. Ya'ni matn orqali ko'z oldimizda boshqa bir vizual asarning manzarasi yaratiladi. Ekfrazis tushunchasi qadimgi yunon adabiyotida, xususan, Homer asarlarida uchraydi. Keyinchalik u poetik va adabiy nazaryada rivojlanib, Murray Krieger, James Heffernan, Stephen Cheeke kabi tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlangan. James A. Heffernanning "Museum of Words: The Poetics of Ekphrasis from Homer to Ashbery" asari ekfrazis tarixi bo'yicha muhim manba sanaladi. Stephen Cheeke qalamiga mansub "Writing for Art: The Aesthetics of Ekphrasis" asarda ekfrazis va san'at o'rnatidagi masalalar yoritiladi. Shu jumladan, amerikalik olim, professor, adabiy tanqidchi Murray Krieger "Ekphrasis: The illusion of the Natural sign" nomli klassik asarida ekfrazisning nazariy jihatlarini, san'at va so'z orasidagi munosabatni, ekfrazis konseptini san'at va til nazariyasi doirasida chuqur tahlil qilgan. Ekfrazis badiiy matnning eng murakkab hodisalaridan biri sifatida tasviriy san'at va adabiy ifodaning kesishgan nuqtasida turadi. Odatda ekfrazis deganda matn orqali biror vizual san'at asarini ifodalash tushuniladi. Biroq Murray Krieger o'z tadqiqotlarida ekfrazisni nafaqat adabiy vosita, balki matnning tasviriy san'at ustidan ustunligini ko'rsatuvchi estetik hodisa sifatida baholaydi. U ekfrazisni san'atshunoslik va adabiyotshunoslikdagi murakkab muammo sifatida ko'rib chiqadi. Krieger Homerning "Illadiya" asaridagi mashhur "Axilles qalqoni" tasviriga murojaat qilib, uni keyinchalik vizual san'atda qayta yaratishga qilingan urinishlarni "teskari ekfrazis" (reverse ekphrasis) deb ta'riflaydi. Ya'ni matnda berilgan verbal tasvirni rassomlar yoki haykaltaroshlar ko'rinishga keltirishga harakat qiladilar. Biroq olimning fikricha, bu urinishlar doimo muvaffaqiyatsiz bo'ladi. Sababi shundaki, matnning poetik murakkabligi, vaqt va narrativ qatamlari, ramziy ma'nolari biror tasviriy shaklda to'liq aks ettirilishi mumkin emas. Kriegerning asosiy davosi shundan iboratki, "So'zning imkoniyatlari vizual san'atdan ustundir. Shoir yaratgan "matnli rasm" nafaqat ko'rish imkonini beradi, balki uni vaqt bilan, ramziy qatamlar bilan boyitadi. Shu bois ekfrazisda yaratilgan verbal "tasvir" doimo murakkab va ko'p qatlamli bo'lib, uni vizual shaklga o'tkazish chog'ida muqarrar ravishda yo'qotishlar yuz beradi"³.

Bundan tashqari Krieger qalqon timsolini ikki tomonlama himoya vositasi sifatida talqin qiladi: bir tomondan, u moddiy jism – jang quroli, ikkinchi tomondan, ramziy ob'yekt – madaniy va tarixiy merosning ifodasi. Ammo bu qalqonning o'zi emas, balki matnda berilgan tasvir mavjuddir. Demak, qalqon mustaqil vizual obyekt sifatida emas, balki verbal ramz sifatida yashaydi. U ekfrazisni verbal san'atning o'ziga xos g'alabasi deb baholaydi. Va uning asosiy muammosi sifatida yaratilgan matnli rasm hech qachon vizual shaklda to'liq tiklanmasligini ko'rsatadi.

Tarjima jarayonida ekfrazisning ushbu murakkabligi yanada ortadi. Chunki tarjimon nafaqat matndagi vizual elementlariga emas, balki ularning ramziy va pragmatik qatamlarini ham boshqa tilga o'tkazishi kerak bo'ladi. Bunda semantik yo'qotishlar, madaniy

¹Isomiddinov Z. "Oliyimaqom san'atning oliyanob mardumlari"// Tarjima san'ati. – 2023. – N7.

²Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983. – B 51-bet

³Murray Krieger. "Ekphrasis the Illusion of the Natural Sign". Baltimore/London: The Johns Hopkins University Press, 1992.

konnotatsiyalarning soʻnishi va kontekstual oʻziga xoslikning buzilishi muqarrardir.

Lawrence Venutti esa ekfrazisni tarjima nuqtayi nazaridan tahlil qilib, oʻzining “ Ekphrasis, Translation, Critique” maqolasida muhim gʻoyalarni ilgari suradi. Olim tarjima nazariyasi doirasida ekfrastik matnlarni oʻrganish uchun qatʼiy va ilmiy metodologiya taklif etadi. Uning fikricha, “ ekfrastik matn (tasvir haqida yozilgan adabiy asar) va uning manba tasviri oʻrtasidagi munosabat oddiy nusxa koʻchirish yoki shakl va maʼnoning mexanik oʻtkazilishi emas. Aksincha, bu munosabat hermenevtik, yaʼni talqinga asoslangan jarayondir”⁴.

Germenevtik munosabat deganda Venuti shuni nazarda tutadi: yozuvchi yoki shoir tasvirni qayta yaratayotganda, u oʻz madaniy muhiti, ijtimoiy tajribasi va shaxsiy talqini orqali manba materialga yangicha maʼno bagʻishlaydi. Bu jarayon transformativ (oʻzgartiruvchi) xususiyatga ega, chunki ikkinchi darajali asar – yaʼni sheʼr yoki hikoya – asl tasvirdan butunlay mustaqil badiiy mahsulotga aylanadi.

Venuti metodologiyasining asosiy afzalligi shundaki, u tanqidchiga ham manba tasvir, ham ekfrastik matnning madaniy-ijtimoiy kontekstini soʻroq ostiga olish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali tanqidchi nafaqat asarlarni solishtirib oʻrganadi, balki ularning yaratilish sharoitlarini ham tahlil qiladi. Natijada, ikkalasidan biriga – na asl tasvirga, na adabiy matnga – tengsiz ustunlik berilmaydi; ularning har biri oʻziga xos estetik qiymati bilan tan olinadi.

Venuti oʻz nazariyasini Rosanna Warrenning “Renoir” sheʼri misolida koʻrsatadi. Bu sheʼr fransuz rassomi Ogyust Renoirning “Qayiqda kechki ovqat” nomli mashhur rasmi asosida yozilgan. Warren rassom tasvirini shunchaki tasvir qilmaydi, balki uni oʻz sheʼriy tili, zamonaviy nuqtayi nazar va shaxsiy his-tuygʻulari orqali qayta yaratadi. Shu orqali yangi, mustaqil badiiy asar vujudga keladi. Yaʼni, Venutining hermenevtik modeli ekfrazisni oddiy tasvirdan matn koʻchiruv sifatida emas, balki murakkab madaniy, ijtimoiy va shaxsiy talqin jarayoni sifatida tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv zamonaviy ekfrazis tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Yaʼni Venutining ushbu maqolasi ekfrazis tadqiqotlariga tarjimashunoslik metodologiyasini olib kirish orqali yangi yoʻnalish ochadi.

Natijalar. Sheʼr yoki badiiy matnda vizual obyektlarni (manzara, yuz, predmet, rang va hokazo) soʻz orqali qayta yaratilishi, yaʼni vizual va verbal sanʼatning kesishgan nuqtasida joylashadi. Rassom bir manzarani rasm bilan koʻrsatsa, koʻz oldimizda tayyor tasvir paydo boʻladi. Shoir yoki yozuvchining asl matndagi tasvirlarni soʻz bilan chizishi mashaqqatli jarayon. Chunki u soʻzlar orqali hayolda rasm chizadi, shu bilan birga soʻzning ritmi, musiqasi, ramziy ogʻirligini ham hisobga olishi kerak. Oʻquvchini uni tasavvurida qayta yaratishi, koʻz oʻngida qayta jonlantirishi kerak. Bu esa oddiy taʼrifdan farqli – obrazli, hissiy, metaforik, ramziy tilda boʻlishi shart. Chunki, ekfrazisda tasvir oddiy manzara emas, balki ramziy maʼno kasb etadi. Masalan, qora bulut – iztirob, qahraton qish – yolgʻizlik, zulmatni anglatishi mumkin. Demak, shoir ham, oʻquvchi ham bu jarayonda “hissiy mehnat” qiladi. Shoirning mashaqqati ham shunda – u oʻz tasavvurini boshqalarga oʻtkaza olish uchun soʻzlarni sanʼat darajasida ishlatishi zarur. Badiiy asarda ekfrazis faqat “koʻrsatish” uchun emas, balki ruhiy taʼsir berish uchun ishlatiladi. Aytaylik, tabiat tasviri muallifning kayfiyatini, muhabbat, sogʻinch yoki iztirobini ochib beradi. Badiiy matnda ekfrazis narrativ xususiyatga ega yaʼni voqeani bir lahzaga toʻxtatib, tasvirni oldinga chiqaradi. Misol uchun qahramon saroyga kirs, yozuvchi uzoq vaqt saroy interyerini tasvirlaydi. Bu tasvir nafaqat koʻrinishni beradi, balki qahramonning hayratini, davr ruhini ham ochib beradi. Tarjimada bu jarayon ikki barobar mashaqqat demakdir. Aslida yozuvchining oʻzi tasvirni yaratishi murakkab kechgan boʻlsa, tarjimonga undan ham koʻproq qiyinchilik tugʻdiradi. Chunki u nafaqat tasvirni soʻzlarda qayta ifodalaydi, balki boshqa tilda ijodkor yaratgan badiiy va estetik kuchni ham tiklashi zarur. Bundan tashqari vizual – madaniy kod bilan bogʻliq, til orqali qayta tasvirlash esa har doim qisman “transformatsiyaga” olib keladi. Shu bois tarjimonning asosiy vazifasi – tasvirni emas, uning funksiyasini va estetik taʼsirini ikkinchi tilga oʻtkazishdir. Tarjimon ekfrazis tarjimasida duch keladigan asosiy muammolardan biri bu

Nozim Hikmat:

“Iskemeleler ayakta uyuyor
masa da öyle

tilning imkoniyatlari va cheklolari, yaʼni bir tilning leksik boyligi, metaforik anʼanalari, ramziy tilda toʻliq mos kelmaydi. Yoki madaniy kodlardagi tafovut – ekfrazisda tasvirlanadigan predmet yoki sahna koʻpincha maʼlum bir davr, hudud yoki madaniyatga oid boʻladi. Tarjimonda ikki variant boʻladi:

- Chetlashtirish (foreignization): asl koloritni saqlash, lekin oʻquvchi uchun tushunishi qiyinroq boʻlishi mumkin.
- Moslashtirish (domestication): oʻquvchiga tushunarliroq obrazni tanlash.

Bundan tashqari ekfrazis tarjimasida pragmatik kontekst ham muhim ahamiyatga ega. Pragmatika – bu matnning vazifasi, auditoriyaga taʼsiri. Ekfrazisda tasvir nafaqat koʻrinish beradi, balki oʻquvchini hayratga solish, hissiy jihatdan taʼsirlash uchun xizmat qiladi. Tarjima jarayonida tarjimon pragmatik kontekstni hisobga olinmasligi natijasida matnning hissiy, estetik, taʼsirchanlik funksiyasi boshqa madaniyat oʻquvchisiga yetib bormasligini yuzaga keltiradi. Masalan, Gʻarb sheʼriyatida “angel” (farishta) tasviri poklik ramzi. Oʻzbek tilida esa “pari” yoki “hur” obrazlari koʻproq ishlatiladi. Tarjimon agar “angel” ni “farishta” deb tarjima qilsa, pragmatik taʼsir yoʻqolishi mumkin. Sababi oʻzbek oʻquvchisi uni diniy qatlamda qabul qiladi, romantik ramz sifatida emas.

Tarjima jarayoni ikki tomonlama ekfrazisdir: bir tomondan, tarjimon original matndagi badiiy tasvirlarni oʻz ichida qayta konstruksiya qiladi; ikkinchi tomondan, u bu tasvirlarni yangi til va madaniy kodlar orqali qayta yaratadi. Bu “ikki qavatli interpretatsiya” sheʼriy tarjimaning eng nozik nuqtasi sanaladi. Sheʼriy tarjima muvaffaqiyatining kaliti – “lirik barqarorlik” ni taʼminlashdir. Buning uchun tarjimon original matnning temporal strukturasini, fonetik jihatdan uygʻunligini, konseptual ramkasi oʻrtasida muvozanat topishi lozim.

Nozim Hikmat Ran (1902-1963) – turk adabiyoti va sheʼriyatining eng muhim namoyondalaridan biri. Nozim Hikmatning hayot va ijod yoʻli gʻoyat murakkab va kurash bilan toʻla boʻlgan, siyosiy surgun, ziddiyatlar va mafkuraviy qarama-qarshiliklardan iborat edi. U yoshligidanoq inqilobiy gʻoyalarga moyil boʻlib, Moskvada taʼlim olgan. U nafaqat turk sheʼriyatiga yangi ritm va erkin sheʼr shaklini olib kirdi, balki uning mazmunini ham butunlay yangiladi. U sheʼrni elitarlar uchun emas, balki xalq – ishchi, dehqon, ezilgan kishilar uchun yozdi. “ Qirq haromilar asiri” sheʼri uning yoshligidanoq mustamlakachilikka qarshi keskin pozitsiyasini koʻrsatadi. Bu kurash uning butun hayoti va ijodiga singib ketgan. U umrining 17 yilini turli qamoqxonalarda oʻtkazdi. Lekin temir panjaralar uning qalbidagi erkinlik tuygʻusini, dunyoni idrok etishini va ijodiy qudratini hech qanday yoʻl bilan shlab turolmadi. Aksincha, qamoq davri uning eng buyuk asarlari – “ Inson manzaralari” epopeyasi, “Turmadan xatlar” kabi sheʼriy turkumlar paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Nozim Hikmatning sheʼrlari faqat siyosiy manifestlar uchun emas. Ular ichida keng koʻlamli insoniy tuygʻular – sevgi (“Bir sevgi afsonasi”), umid, inson qiyofasiga hayrat (“Inson manzaralari”) va tabiatga muhabbat kabi mavzular uygʻun oʻrin olgan. Uning sheʼriy ovozi hamisha insonparvarlik, adolat va goʻzallik uchun kurashgan⁵.

Muhokama. Mamlakatimizda Nozim Hikmat ijodiga qiziqish 1928-yildayoq boshlangan. Uning sheʼrlari va asarlarini Gʻafur Gulom, Shayxzoda, Mirtemir, Miraziz Aʼzam, Rauf Parfi, Tilak Joʻra, Sulaymon Rahmon kabi bir qator ijodkorlar katta qiziqish bilan oʻzbek tiliga tarjima qilgan. “ Turkiya haqida hikoya” nomli pyesasi Oʻzbek milliy akademik drama teatrida, “ Bir sevgi afsonasi” pyesasi asosidagi balet esa Navoi nomidagi davlat akademik katta teatrida sahnalashtirilgan. Shu jumladan, uning sheʼrlarini oʻzbek tiliga oʻgʻirgan yoshlar qatorida Rafiq Saydulloning tarjimalari alohida ajralib turadi⁶.

Quyida Nozim Hikmat qalamiga mansub “*Veraʼnin uyku*dan uyanishi” nomli sheʼrining Rafiq Saydullo tarjimasidan olingan parchadagi xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilamiz va sheʼrda ishlatilgan ekfrazis elementlarini koʻrib chiqamiz:

serilmiş yatıyor sırtüstü kilim
yummuş nakışlarını
ayna uyuyor
pencerelerin sım sıkı kapalı gözleri

⁴ Venuti, L. Ekphrasis, Translation, Critique. Art in Translation, 2010. 2(2), 131–152.

⁵ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/turk-she-riyati/nozim-hikmat-1901-1963>

⁶ Lawrence Venutti. Ekphrasis, Translation, Critique // Art in Translation, Volume. – 2010. – 2N. – B. 131-132.

uyuyor sarkitmiş boşluğa bacaklarını
karşı damda bacalar uyuyor
kaldırımında akasyalar da öyle
bulut uyuyor göğsünde yıldızıyla
evin içinde dışında uykuda aydınlık".
uyandın gülüm
iskemleler uyandı
köşeden köşeye koşuştular
masa da öyle
doğrulup oturdu kilim
nakışları açıldı katmer katmer
ayna seher vakti gölü gibi uyandı
açtı kocaman mavi gözlerini pencereler
uyandı balkon
toparladı bacaklarını boşluktan
tüttü karşı damda bacalar
kaldırımında akasyalar ötüştü
bulut uyandı
attı göğsündeki yıldızı odamıza
evin içinde dışında uyandı aydınlık
doldu saçlarına senin
dolandı çıplak beline ak ayaklarına senin" ⁷.

Rafiq Saydullo tarjiması:

"Kursilar oyoq ustida yotar
Masalar ham huddi shunday
Chalqancha yotar gilam –
Yumib naqshlarini
Ko'zgu yotar
Derazalarning ko'zi qattiq yopilgan
Yotar cho'zib bo'shliqqa oyoqlarini ayvon
qarshi tomda mo'rilar yotar
Ko'chadagi akaslar ham
Bulut yotar ko'ksida yulduzi-la
Uyning ichida tashqarida oydinlik
Uyg'onadi gulim.
Kursilar uyg'onib,
Bu burchakdan u burchakka chopdilar,
Masa ham o'shanday.
Turib o'tirdi gilam.
Naqshlari ochildi alvon-alvon.
Ko'zgu sahar payti ko'l kabi uyg'ondi.
Ochdi yirik moviy ko'zlarini derazalar,
Uyg'ondi ayvon,
Yig'ib oldi oyoqlarin bo'shliqdan.
Tutunari qarshi tomda mo'rilar.
Ko'chadagi akaslar shivirlashdi.
Bult uyg'ondi:
Otdi ko'ksidagi yulduzni xonamizga,
Uyning ichida,eshikda,
Uyg'ondi oydinlik
To'ldi saslaringga sening
O'raldi yalang'och belingga,oq
Oyoqlaringga sening"⁸.

"Kursilar oyoq ustida yotar" (aslida: "ayakta uyuyor" – "tik oyoqta uhlayapti") bu o'rinda semantik siljish bor: turkchada "uyqu" metaforasi aniq, o'zbekchasida esa "yotish" oddiy holatga aylangan, eksfrazisni berishda "uyqu" metaforasi aslyatdagi matnda butun bir she'rning ruhini bergan, mutarjim tarjimada bevosita ekvivalentiga emas "yotar" leksemasiga almashtirganligi sababli tasvir kuchi pasaygan. Shuningdek, tarjimada "oyoq ustida" ishlatilishi mantiqan "ustida yotib" degan ko'rinishga yaqin bo'lib, asl ma'noni buzib yuborgan. "Kursilar tik oyoqta uhlar" ko'rinishida berish maqsadga yaqin bo'lar edi. Yoki boshqa banddagi "bacalar uyuyor" jumlasida "mo'rilar yotar" tarzida tarjima qilingan. Turkcha matn o'qilganda mo'rini uhlashi undan tutun chiqmasligi, uni ishlatilmayotganligi, u ham orom olayotganligi, tun tasviri bilan bog'liq assotsatsiyalar uyg'onadi. O'zbek tiliga "mo'ri yotar" tarzida tarjima qilinishida esa oddiy qarshi

tomda mo'ri turibdi degan ma'noni bergan. She'rning qolgan misralarida ham kundalik predmetlar – stul, gilam, ko'zgu, deraza, balkon "uyqu holatida" deb tasvirlanadi. Bu personifikatsiya (jonlantirish) orqali berilgan eksfrazisdir. Ya'ni yuqoridagi misralar orqali muallif predmetlarning vizual manzarasini chizadi, xuddi ko'z oldimizda uyqudagi xona va tashqaridagi hayotni ko'ramiz. Eksfrazisning kuchli jihati – narsalar shaxsiyalashib, hayotiy ritmda tasvirlanadi. Keyingi "masalarda öyle" misrasidagi "masa" so'zi o'zbek tilidagi ekvivalenti "stul" so'ziga emas, o'z holicha tarjima qilingan. To'g'ri turkiy xalqlar tarjimasiz ham deyarli bir-birini tushungani uchun ko'pincha tarjimonlar tarjimada so'zlarni tarjima usulida aynan o'tkazib qo'yish usulidan borishadi. Biroq bu tarjimadagi eng katta illatlardan biri sanaladi. Sababi barcha kitobxon uchun bu leksema birdek tanish emas, qolaversa she'rni o'qish jarayonida o'quvchi bu so'zni tarjimasini bilish uchun lug'atdan foydalanadi, natijada tarjimadan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Turk tilidagi "masa" so'zi biror bir madaniy bo'yoqni aks ettirsa edi biz tarjimonni bu so'zni aynan o'tkazishini oqlasak.

Yoki boshqa bir misradagi "kaldırım" so'zi "ko'cha" deb tarjima qilingan. Lekin bu semantik jihatdan yanglish. Chunki "ko'cha" umumiy maydon, mashinalar yo'li ham, piyodalar yo'lagi ham kiradi va turk tilida "sokak" ma'nosida ishlatiladi. "Kaldırım" esa ko'cha yoki ko'priklarda piyodalarning qulay va xavfsiz harakatlanishi uchun toshlar yotkizilgan, ajratilgan joy (yo'lak, troutar). "Kaldırımında akasyalar da öyle" jumlasida muallif piyodalar yo'lagi bo'ylab ekilgan akatsiyani ham sevgili yor kabi orom olayotganini tasvirlagan. Shu bilan birga "akasya" so'zi transliteratsiya usuli bilan berilgan. Agar transkripsiya usuli orqali "akatsiya" deb tarjima qilinganda to'g'riroq bo'lar edi. Akatsiya – mayda patsimon bargli, to'p gullari erta bahorda ochiladigan xushmanzarali daraxt. "Ko'chadagi akaslar ham" – bu jumlada pragmatik ta'sir mutlaqo yo'qolgan. She'rni o'qishda bir deganda akatsiya daraxtini idrok etib, ko'z oldida tasvirini gavdalantirish qiyin, shu bilan birga to'g'rdan to'g'ri "akas" deb ifodalangan bo'lsa. Agar kitobxon bu o'simlik haqida ma'lumotga ega bo'lmasa bu jarayonni yanada qiyinlashtiradi. "Ko'chada yotgan akas" – o'quvchi tasavvurida katta ko'chada yotgan mavhum bir predmetni hosil qiladi, muallif nazarda tutgan, yo'l chetida qator bo'lib o'sib turgan, tabiat tasviri va shahar manzarasini emas. "Tarjimaning ekvivalentligi ikki tilli muloqotning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Tarjimaning pragmatic jihati - tarjima jarayonning borishi va natijasiga ta'sir qilish zarurati bo'lib, tarjimaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Tarjima nafaqat asl nusxaga ekvivalent bo'lishi, balki qabul qiluvchida ma'lum bir intellektual yoki hissiy reaksiyani uyg'otishi kerak"⁹. Tarjimon "yoladagi akatsiyalar ham" deb tarjima qilganda muallif maqsadiga yanada yaqinlashgan bo'lar edi. Yana bir "doğrulup oturdu kilim" misrasi esa "Turib o'tirdi gilam" deya tarjima qilingan. Grammatik jihatdan to'g'ri lekin poetik ma'noni yo'qotadi, chunki gilam real harakat qilamaydi. Gilamning turib o'tirishi she'rga mantiqsiz ohang bergan. Bu kamchilik she'rning badiiy qiyofasi o'zgarishiga sabab bo'lgan. "rostlanib yoyildi" shakli vizual manzarani tiklaydi – gilamning o'zini turib olish jarayoni orqali uyg'onish ramzi beriladi.

So'nggi misralardagi "saç" so'zini "sas" deb tarjima qilish bilan mutarjim qo'pol xatoga yo'l qo'ygan. "Sas" so'zi tovush yoki aks-sado ma'nosini beradi. "Evin içinde dışında uyandı aydınlık, doldu saçlarına senin dolandı çıplak beline, ak ayaklarına senin" bu misralarda "soch" – tonggi yorug'likni qabul qiluvchi, quyosh va shamol bilan o'ynayotgan jonli obrazdir. Ya'ni "yorug'lik sochlariga to'ldi" deganda, shoir go'yo quyosh nurlarining sevgilisining sochlariga tushayotganini yoki quyosh nurlari sochlari orasida yaltirayotganini tasvirlagan. Nozim Hikmat har bir predmetning "uyg'onishi" orqali inson va tabiatning bir butun uyg'onishini tasvirlaydi. "To'ldi saslaringga sening o'raldi yalang'och belingga, oq oyoqlaringga sening" – "sas" so'zi bu misralardagi ma'noni buzib yuborgan, she'r tasvirdan tovushga siljib ketgan va eksfrazisning poetik kuchi yo'qolgan.

Nozim Hikmatning "Veranın uykudan uyanışı" she'ri boshdan oyoq eksfrazis – ya'ni badiiy tasvir vositalari orqali ko'rish, sezish, his etish jarayonini so'z bilan jonlantirish usuli orqali yozilgan. She'rdagi tasvirlar orqali u uyg'onish, hayotning qayta jonlanish manzarasini yaratadi. Ana shu estetik ifoda eksfrazisning markazida turadi: ko'rish tasviriga, tasvir esa his-tuyg'uga aylanadi. Tarjimada esa bu badiiy

⁷ <https://blog.ufuk.io/nazim-hikmet-veranin-uykudan-uyanisi/>

⁸ <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/turk-sheriyati/nozim-hikmat/>

⁹ Oripova K. Tarjimaning pragmatik jihati//International scientific journal of Biruni. – 2024. – 3. – B.120.

qatlam to'liq saqlanmagan. Natijada, o'quvchining tasavvurida paydo bo'lishi kerak bo'lgan jonlanish manzarasi yo'qolgan. Uning she'rida ekfrazis orqali uyg'onish, hayotning qayta harakatga kelishi poetik tarzda ifoda etilgan. Biroq tarjimada ayrim so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilishi, obrazlarning jonliligi va vizual ohangini susaytirgan. Shu bois, ekfrazis tarjimasida so'zning tashqi shaklidan ko'ra, ichki tasvir kuchini, ko'rish tajribasini asrab qolish muhimdir. Bu jarayon tarjimonning badiiy sezgisi, madaniy idroki va poetik tafakkuriga tayanadi. Shunday yondashuvgina asl asardagi badiiy nur, jonlilik va ruhiy uyg'onishni yangi tilda to'laqonli qayta yaratish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Til bilish– tarjimaning birlamchi sharti bo'lsa-da, tarjimada shuning o'zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallif maqsadini tushunish va boshqa tilda

ifodalab berish uchun ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga ham to'g'ri keladi"¹⁰. Demak, ekfrazis tarjimada aynan vizual (ko'rish) tasvirini saqlab qolish bilan bog'liq. U tarjimonda so'z tanlovi, metaforani qayta jonlantirish, hamda manzara va hissiyot o'rtasidagi uyg'unlikni saqlab qolish qobiliyatini talab qiladi. Agar tarjimon faqat denotativ ma'noni (ya'ni so'zning bevosita ma'nosini) ko'chirish bilan cheklanib qolsa, matndagi badiiy ko'rish qobiliyati yo'qoladi. Ekfrazis tarjimasi shuning uchun ham muhimki, u matnning estetik qiymatini, poetik ko'rish burchagini yangi tilda qayta yaratadi. Tarjimon so'zlarni emas, tasvirni tarjima qiladi; u muallifning nigohini, yorug'likni, shaklni, ohangni boshqa madaniyat ko'zi bilan qayta ko'rsatadi. Shu sababdan ekfrazisning to'laqonli tarjimasi faqat lingvistik emas, balki estetik ekvivalentlikni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isomiddinov Z." Oliymaqom san'atning oliyanob mardumlari"// Tarjima san'ati. – 2023. – N7.
2. Murray Krieger. " Ekphrasis the Illusion of the Natural Sign". Baltimore;London: The Johns Hopkins University Press, 1992.
3. Venuti, L. Ekphrasis, Translation, Critique. Art in Translation,2010. 2(2), 131–152.
4. Lawrence Venuti. Ekphrasis, Translation, Critique//Art in Translation, Volume. – 2010. – 2N. – B. 131-132.
5. <https://blog.ufuk.io/nazim-hikmet-veranin-uykudan-uyanisi/>

6. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/turk-sheriyati/nozim-hikmat/>
7. Oripova K. Tarjimaning pragmatik jihati//International scientific journal of Biruni. – 2024. – 3. - B.120.
8. Ochilov Ergash. Tarjima nazaryasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – T.,2012.
9. Salomov G'. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi",1983, – B. 51.

¹⁰ Ochilov Ergash. Tarjima nazaryasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – T.,2012